ESHQOBIL SHUKUR IJODIDA SO‘Z HAYRATI

Uldona Abdujapbarovna ABDURAHMONOVA
o‘qituvchi
Alisher Navoiy nomidagi
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
uldana.abdurahmonova@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada lirik matnlardagi so‘z hayrati Eshqobil Shukur she’riyatidagi suv metaforalari tizimida yaratilgan rang-barang ramzlar, timsollar, obrazlar, motivlar, detallar misolida tiriklik, hayot asosi, inson joni va ruhi, boqiylik, poklanish kabi ma’nolarni anglatishi tadqiq qilingan.

Tayanch so‘zlar: so‘z, metafora, timsol, o‘zak ramz, suv, daryo, tomchi, chashma va baliq hayrati, yangi obrazlar, milliy poetik tafakkur.

ЧУДО СЛОВА В ТВОРЧЕСТВЕ ЭШКОБИЛЯ ШУКУРА

Ульдона Абдужапбаровна АБДУРАХМОНОВА
преподаватель
Университет узбекского языка и литературы
имени Алишера Навои
Ташкент, Узбекистан
uldana.abdurahmonova@mail.ru

Аннотация

В данной статье анализируется, как чудо слова в лирических текстах приобретает различные значения, такие как жизненная сила, основа жизни, душа и дух человека, бессмертие, очищение на примере красочных символов, образов, мотивов, деталей, созданных в системе водных метафор в поэзии Эшкобила Шукура.

Ключевые слова: слово, метафора, символ, корень-символ, вода, река, капля, родник и чудо-рыба, новые образы, национальное поэтическое мышление.

So‘z – Yaratganning odamzotga bergan eng ulug‘ ne’matlaridan biri, cheksiz inoyati, marhamati, noyob mo‘jiza, hayrat asosidir. Iste’dodli shoir Eshqobil Shukur she’rlarida ham eng ko‘p murojaat qilingan obrazlardan biri – “so‘z” metaforasi. Shoir lirik matnlarida ***tuproq*** (*“yam-yashil ohanglar, “yam-yashil so‘zlar”, “xasta daraxt”, “maysa chimmati”, “kuylayotgan toshlar”, “loy jilvasi”, “ishqning tobuti”*), ***suv*** (*“muzliklar kulgisi”, “sariq daryolar”, “oriq daryolar”, “muzlagan ovoz”*), ***havo*** (*“shamol yollari”, “momoqaldiroq uyqusi”, “qanotli og‘riq*”, *“oyning nikoh to‘yi”, “oyning beshigi”, “oy shiviri”, “Iso*

nafasi", "Nuh qaldirg'ochi"), ***olov*** (*"parivash olov", "muhabbat otashi", "quyosh tuprog'i"*) tizimidagi obrazlar bir asarda jamlangani o'zbek she'riyatida uchraydigan kamdan-kam hodisadir. Shulardan kelib chiqib, Eshqobil Shukur ijodiy shaxsiyatidagi ***suv***, ***havo, olov*** va ***tuproq*** metaforalar tizimini ifodalagan lirik obrazlar, metafora va istioralarni ***"To'rt unsur" hayrati*** tarzida tizimlashtirish mumkin. Quyida faqat suv metaforalar tizimi haqida to'xtalamiz.

Suv barcha davr poetikasida universal timsol bo'lib, *tiriklik, hayot asosi, inson joni va ruhi, boqiylik, poklanish* kabi rang-barang ma'nolarni ifodalaydi: a) *suvning uch olam aro*, ya'ni "samodan – samoga" yo'nalishidagi *harakati* (*samodan yomg'ir/tomchi – yerostidan buloq – yerustida irmoq/anhor/daryo/dengiz – samoga bug'*) inson qalbi va Alloh taolo (yaratiq va Yaratgan) munosabatlarini (*insonning dunyoga kelishi – yashashi – biologik o'limi – Qiyomatda qayta tiriltirilishi*) ifodalaydi; b) dunyo mifologiyasi va folkloridagi Anahita, Nun, Apsu, Tiamat kabi obrazlar ham "o'lib tiriluvchi tabiat"ni, ham inson hayotini tamsillaydi; v) qahramonlar, odatda, suv yo'li (daryo/dengiz) sinovlarini bosib o'tadi, el-yurtga suv keltirish uchun tog' yo'nadi va h. kz.

Eshqobil Shukur she'rlaridagi ***suv metaforalar tizimi*** asosan ***daryo*** *(sohil, ko'lmak, jilg'a, chashma, baliq, to'fon, sel, payg'ambar orol, dengiz, to'lqinlar, kema, muzliklar, obi zam, botqoq, nilufar, qurbaqa va hkz),* ***tomchi*** (*shudring, shabnam, manglay teri, ko'zyosh, sumbula, jom, chalob, gulob, qon va hkz),* ***qor-yomg'ir*** *(qahraton, ayoz, Qorbobo, yaldo kechasi)* kabi o'zak ramzlarda birlashganki, ularning har biri turfa xil lirik obrazlar, metafora va istioralarga asos bo'lgan.

Daryo hayrati. Shoir ijodiy shaxsiyatida bu o'zak ramz asosan ***yo'l*** ("*Bir yorga ko'zimdan yo'l bersam dedim, // Ko'zim daryosida oqmadi hech kim*" [5; 254]); ***chegara*** ("*Begona sohillar chorladi bizni, // Ko'zimizda daryo chayqalib turdi*" [5; 289]); ***vaqt, umr, hayot*** ("*Bu og'och jasadlar, o'tin tanalar, // Qumlar daryosida oqurlar qayon?* [5;128] yoxud *"Men esa... Ichiga bir daryo to'lgan // Mingta yirtig'i bor uvada ko'ngil"* [4;67] yoki *"Dengiz devoliga chizilgan tasvir, // Bir qultum hayotday yutilgan daryo…* [5;229]*"*); ***ilohiy quvvat oqimi*** ("*Sen –*

daryo, sen – daryo, muazzam daryo, // Adashgan balig‘day qumlog‘da bu dil” [4;72] yoki “*Yig‘laram, ko‘nglimda o‘lgan daryodek // O‘zani qirqilgan iymon chayqalur*” [4;69]); ***poklanish, umid, niyat*** (“*Enamday daryolarim // Oq yuvib, oq taradi*” [5;282] yoki “*Kechadan omonlik tilayman sizga, // Oq daryolar oqsin eshigingizdan*” [2;11] yo “*Bolalar afsona izlar – hayajon – // Daryolarning so‘lim qirg‘oqlarida*” [5;186]) timsollari bo‘lib keladiki, suv metaforalari ko‘pincha o‘zaro zidlikdagi olov va sahro ramzlari bilan bir halqa ichra o‘zaro ters qutb binarligida namoyon bo‘ladi:

“Menda

Bir ko‘za suv, bir sahro qum bor edi,

Mangulikdan adashgan ZUM bor edi,

O‘zim ichra boshqa O‘ZIM bor edi...” [5;9]

“Begona” she’rida [5;254] (“*Siz daryo, mayli, men cho‘l bo‘lsam dedim, // Bag‘rim sahrosida oqmadi hech kim*”) ham, “Alpomish” ohanglarida” [5;255] (“*Suv edim saxtiyon sahro bo‘lmisham, // Yer yuza adashgan Zuhro bo‘lmisham*”) ham, “Oppoq bulut kiyib...” [4;53] she’rida (“*Tilimda daryo-yu, dilimda olov*”) ham, “Qor edim qalovim” [5;257] manzumasida (“*Suv edim, olovim topildi, yondim*”) ham “Suv ustida...” [2;45] she’rida (“*O‘t ustida, o‘tlar ustida // Ko‘z yoshlarim daryo bo‘ldi-yey...*”) ham shu kontrastga guvoh bo‘larkanmiz, daryo/suv va sahro/olov kurashida baribir toat-ibodat, itoat, mo‘minlik, bandalik, salimlik, muslimlik hayratiga intilish istagi o‘zini namoyon qiladi:

“*Bu achchiq shamollar keltirmas sado.*

Bir qultum so‘z kutar bechora sozim,

Atrofda... Atrofda saxtiyon sahro...

O, sahro sarvari,

Suv so‘rab keldim...” [2;128].

“Suv va olov sevgisi”da [6;27] esa ikki lirik obraz – Sen (suv) va Men (olov) kontrasti bir qalb ichidagi o‘z aro kurashlarni ifodalaydi. Bunda “*kuylayotgan jilg‘a tovushi*”, “*osmon yelkanlarin hurligi*”, “*gulday ochilgan so‘zlar atri*” – ***suv maqomi***ni, “*ochiqqo‘l shamolning hovuchi*”, “*sim-siyoh*

yo‘qlikning borlig‘i”, “*yo‘lga ekilgan izlar satri*” esa ***olov darajasi***ni ifodalaydi. Suv maqomida *qalbning Yaratganga itoati, sakinat, mo‘minlik, muslimlik, barqarorlik, borliq;* olov darajasida esa isyon, shovqin, qarama-qarshilik, ko‘nikolmaslik, muqimsizlik, beqarorlik, bo‘shliq/yo‘qlik mujassam. Olovga nisbat kelgan “*sim-siyoh yo‘qlikning borlig‘i*” metaforasi bilan esa olov nainki suvga, balki o‘z-o‘ziga ham muxolif ekani anglatiladi. “*Jilg‘a kuyi*” bilan “*ochiqqo‘l shamolning hovuchi*” istioralarida erkinlik, ozodlik va ibodat (duo) ifodasi o‘laroq o‘zaro uyg‘unlik bor. She’rning so‘nggi to‘rt satrida esa bu zidlik-uyg‘unlik yanada oydinlashadi:

“*Sen chaqmoq sutini ichib yashaysan,*

Men daryo o‘tini kechib yashayman.

G‘aroyib sevgini yashaymiz ikkov,

Bitta chimildiqda suv bilan olov”.

Bunda “*chaqmoq suti*” – bulutlar ichida sodir bo‘ladigan momoqaldiroq uchqunlari – ruhdagi shiddat, yildirimlik qalb bilan bo‘ysundirib olinganini; “*daryo o‘ti*” – “daryo olovi” metaforasi esa – ko‘ngildagi isyon o‘z o‘zanini topgani, itoatga kelayotganini anglatadi. Chaqmoq va o‘t (olov), sut va daryo metaforalaridagi binarlik – bir qalb ichidagi qarama-qarshiliklar aslida suv va olovning g‘aroyib sevgisi, o‘zaro uyg‘unligini ifoda etadi.

“Azal kuyi” she’rida [6;13] ham suv va chaqmoq metaforasi birga keladi: “*Suvdan oldin daryo joni sen, // Sen yoriysan chaqmoqdan oldin*”. “Azal kuyi” – bu Yaratganning “kun”, ya’ni “bo‘l” hukmi yoki inson taniga ruhning puflanish holatining poetik ifodasi bo‘lib, shuning uchun ham shoir uni har bir hodisa avvalining ilk ibtido nuqtasi (“*Sen bahordan oldin gullaysan*” yoki “*har gal oydan oldin to‘lgaysan*” yo “*Sen yomg‘irdan avval yig‘laysan, // Yog‘ajaksan qorlardan avval*” va hkz) sifatida ko‘rsatadi. “Bolajon” she’rida [6;55] esa suv va chaqmoq uyg‘unligini sabiy go‘dak tiynatida (“*Suvlar tovushiday ajib so‘zlisan... // Yursang, qadamingda gullaydi chaqmoq*”) ko‘rarkan, buning asosida ham hayrat turadi (“*Sabo nafaslisan, saboh yuzlisan...// Sen nonning isidan terolasan bol...*”).

“Ko‘z yumib ko‘rganlarim” turkumidagi bir she’rda [6;19] esa “to‘xtagan daryo” *(“Sira oqmay qo‘ygan daryoni ko‘rdim”)* va “ko‘lmak” (“*Bir ko‘lmak ustidan kulardi uning, // Bir qadam ham oqib ko‘rmagan ko‘lmak...”)* lirik obrazlari ham o‘zaro uyg‘unlik, ham o‘zaro zidlanish binarligida keladi. Uyg‘unligi – daryo va ko‘lmak bitta tizimdagi obrazlar bo‘lib, ilohiy quvvat oqimi, ruhiy yo‘l, qalb harakatini tamsillaydi; zidligi – daryo obrazida (garchi to‘xtab qolgan bo‘lsa-da!) yo‘l yurish, harakat, o‘z holini anglash, ko‘lmakda esa harakatsizlik va o‘z holini anglamaslik bor. Bunda qaqshagan (qaqragan, suvsiz) qum, qamishzor – to‘xtagan daryo juzvlari bo‘lib, afsurdahollik manzarasini to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi...

Chashma va baliq hayrati. Chashma – qalb/ong/ruh yangilanishi, quyi va yuqori olamni bog‘lovchi rishta timsoli. Chunki yomg‘ir tomchilari samodan enib, zaminga inib-singib, yana buloq bo‘lib ko‘z ochadi, irmoqlar osha kenglikka intiladi. Baliq esa halollik, poklik, iymon-e’tiqod, mo‘minlik ramzidir. “Chashmajonning baliqlari” [6;73–74] she’rida chashma ramzining badiiy yuki ko‘proq baliqlar obrazi vositasida anglatiladi. Bunda “*moviy ko‘llar*” (chashma) – inson qalbi ramzi bo‘lib, “*qanotli baliqlar, tilla baliqlar*” esa sukunatga erishgan ruh, shaffof/pok/zilol xayollar, nekbin orzularni ifoda etadi:

“*Qanotli baliqlar, tilla baliqlar*
Shaffof sukunatning gung qushlariday
Suzardilar, uchardilar to‘lg‘anib
moviy-moviy ko‘llarida ko‘nglimning,
Oltin baliqlari bolaligimning...”.

Bu o‘rinda baliqlarning suzishi va parvozi ikki shakldagi bir mohiyatni, ya’ni halovatga erishgan qalb/ong/ruh maqomini anglatadiki, bu osuda chashma, sokin ko‘l manzarasi timsolida ifoda etiladi. Chashma nomining toq tutilmasligi (“*Otam toq tutmasdi chashma nomini, // Onam toq tutmasdi chashma nomini, // Chashmani “Chashmajon” deb alqardi ular...*”), baliqlarning xislatli ekani (“*Momom aytar edi: // “Bu baliqlar oddiy baliqlar emas, // Avliyo baliqlar, valiy baliqlar, // Ko‘r bo‘lib qolasan agar o‘ldirsang, //Tentak bo‘lib qolasan ozor*

bersang gar!") bu ma'noni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. "Valiy baliqlar" – qalbning o'z mohiyati, substansiyasi, asosini anglash maqomi ramzi bo'lib, shoir chashmani – bolalikning hayratli nigohlariga, ruhning bu holi-darajasini esa tuyg'ular va xayollarni tasarruf etuvchi ovchiga qiyoslaydi...

Tomchi ko'zyosh hayrati. Eshqobil Shukur she'rlarida *shudring, shabnam, sumbula* obrazlari aksariyat holda *ko'zyosh* ramzi bilan o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Buni tuproq metaforalar tizimidagi *"tonggi/shudringli bedazor" metaforasi va yo'qotilgan singil obrazi o'rtasidagi bog'liqlik"* qismida ham ko'rib chiqdik. Ularga qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, shabnam va sumbula obrazlari ham ko'p o'rinda ko'z yosh ifodasi sifatida qo'llaniladi. Deylik, "Mengim momo yo'qlovi"da [1;191–192] qirlardagi lolalar shamga, maysalar bargidagi shabnam durga mengzalishi – Vatandan olisdagi ayol iztirob-tug'yonlari, ko'zyoshlarini ifodalasa ("*Maysalarning bargida, // Durday yonar shabnamlar. // Boysuntog'ning boshida // Qorlari yaltiraydi, // Qoyalarning ming yillik // Suvlari sirqiraydi. // Voy, Mengim-a, sho'r Mengim. // Uvv!.. Uv!!!*"), "Umid kechasi" [5;186–190] she'ridagi "*Yuraklar dog'ini yuvdi shabnamlar*" satrida ham shu poetik vazifaga guvoh bo'lamiz.

"Sumbula" [2;47–48] she'riga esa shu nomdagi mashhur ashula asos bo'lgani uchun ham xalq qo'shig'idagi "*Sumbula, jon, Sumbula. Siz ketasiz kim bilan?*" satrlari refren bo'lib keladi. Sumbula (yoki Sunbula) – oy nomi (avgust-sentyabr, havo sovish pallasi), qiz ismi bo'lish bilan birga, qoyalarda suv tomchilab turadigan sarg'imtil shokila o'simlik nomi hamdir. Xalq bilimiga ko'ra, qoyadagi sumbula – o'z yoriga erisholmay g'oyib bo'lgan qizning iztirob-hijron ko'zyoshlari timsoli bo'lib, bu she'r ham ayni shu motiv asosiga qurilgan. She'rdagi "*Turnalarim ketmoqdalar ko'z yoshday qator-qator"* yoki *"Osmonda bulut bo'lib yig'laydi g'amgin bahor*" yo "*Oh chekaman, ko'zlarimdan zor-zor oqadi Surxon"* yoxud *"Xayolimning osmonini qoplaydi sirli titroq*" satrlarida bu ma'no yanada yorqinroq bo'y ko'rsatadi.

Yomg'ir hayrati. Suv evriladigan go'zal shakllardan biri – yomg'ir o'zbek she'riyatida eng ko'p murojaat qilinadigan obrazlar sirasidan bo'lib, Eshqobil

Shukur she’riyatida ham sharqona poetik an’analarga muvofiq: a) yolg‘izlik, hasrat, sog‘inch ko‘zyoshlari, hijron yig‘isi, xatoliklardan o‘kinch (“Xilvatdagi yolg‘iz kulbada”, “Yuragimga yog‘adi yomg‘ir...”, “Ko‘nglimni toshga yordim...”, “Qiz qo‘shig‘i”, “Zo‘raki qahqaha”, “Hammol”, “Xun ayoli qo‘shig‘i”, “Tinchlik hususida nutq” va hkz); b) tiriklik, diydor (“Jimgina ishona boshlaysiz menga...”, “Yomg‘irdan oldin”, “Umid kechasi”, “Qadimiy qo‘shiq” va hkz); c) Yaratganning bandalariga cheksiz marhamati, fayz-rahmati, rizq ne’mati (“Naqshband”, “Qaytish” va hkz) kabi ma’nolarni ifodalaydi.

“Xilvatdagi yolg‘iz kulbada” [6;33] she’ridagi peyzajga e’tibor bersak, tog‘ etagidagi bir xilvat kulba, “*tashqarida zim-ziyo zulmat, qora shamol kuylaydi: g‘ir-g‘ir*”, uyda (ichkarida) faqat “*fonus hamsuhbat*” bo‘lsa, derazada “*yig‘laydi yomg‘ir*”. Bundagi zulmat, qora shamol va yomg‘ir obrazlari – ko‘ngildagi inertlikni, fonus esa umidni ifodalaydi. Ularni birlashtirib turgan “qizil ip” – qalb yig‘isi, balki bu o‘z-o‘zini topolmaslik, o‘zidan O‘zining ko‘ngli to‘lmasligi, yolg‘izlik iztirobidir. Yana bir she’rda [6;42] esa xato-adashish iztirobi bo‘lgan qalb yig‘isi “iztirob – ko‘ngil – yig‘i – pushaymonlik” trayektoriyasida ifodalanarkan, bu peyzaj ham to‘laligicha yomg‘ir obrazi asosiga quriladi:

“Yuragimga yog‘adi yomg‘ir,
Yaproqlarda titrar hayajon.
Shamollarga sochildi shoir...
Xato qildim yana, Xudojon!”.

Bu ifoda shakli va usulini “Tinchlik hususida nutq” [2;4] she’rida ham ko‘ramiz: “*Yomg‘irlar shig‘alab yog‘ar bag‘rimga, tog‘larim yuzidan o‘par samolar*”. “Qiz qo‘shig‘i”da [2;58–59] ushalmagan orzular, sarobga aylangan umidlar – toshga aylangan ko‘ngil iztiroblari “*Yomg‘iri yoqut emas, bor-yo‘g‘i yovg‘on ekan*” tarzida ifodalansa, “Zo‘raki qahqaha”da [2;29–30] “*vujudning zanjirbandi, ko‘krakdagi iloha*” – qalb yig‘isi zo‘rma-zo‘raki kulgi bilan ham parallel tasvirda, ham kontrastda keladi (“*Vujudim chopib borar // Qilday arqon ustida. // Yuragim qolib ketdi // Yomg‘irlarning ostida*”).

“Naqshband” dostoni [5; 229–246] va boshqa she’rlarda yomg‘ir – asl turkiycha “yog‘mur” shaklida qo‘llanilarkan, bu timsol Yaratganning bandalariga cheksiz marhamati, fayz-rahmati, rizq ne’mati ifodasi o‘laroq namoyon bo‘ladi va bu qarash ham xalqimiz hayot falsafasiga mos asriy an’analar ildiziga tutashdir. “Qaytish” she’ri [5; 275] – o‘z o‘zaniga qaytgan daryodek o‘zini topib, O‘zidan hayratlangan ko‘ngil kechmishlarining go‘zal tasviri bo‘lib, yurakdan “bir yorug‘ daricha” – “saodat, sevgi eshigi” ochilishini “Payg‘ambar kemasi” (ibodat zavqi, itoat quvonchi, muslimlik maqomi hayrati) va yomg‘ir (fayz-rahmat timsoli) qiyofasida ko‘radi:

“*Rahmat yog‘murlari yog‘di falaqdan,*
Payg‘ambar kemasi – hayot beshigi.
Bir yorug‘ daricha ochdim yurakdan,
Ochildi saodat, sevgi eshigi”.

Qor hayrati. Qor, qahraton, ayoz, yaldo tuni obrazlari ham Eshqobil Shukur she’rlarida, milliy poetik tafakkur an’analariga muvofiq, asosan hijron, tushkunlik, inertlik, sustlik, xaos, o‘lim motivlari bilan birga keladi. “Ko‘pkari” [2; 6–7] she’rida chavandoz (chopag‘on) tulporining o‘limi “*Muzlab qoldi saraton, Quyosh qorga botadi*” tarzida tasvirlangani bejiz emas: ot, xalqimiz mifologik tasavvurlariga ko‘ra, Quyoshning zoomorfik timsoli bo‘lib, bunda qorning quyoshdan ustun kelish ifodasi ko‘ngil batnida (balki etnos hayotida) xaos davri hukmronlik qilayotganini bildiradi. Shuning uchun ham shoir otidan ajragan chopag‘on holini “*chavandozning ko‘nglidan Shom ila Iroq ketdi*”, deya ifoda etadi. Yoki “O‘zbek otaning 43-yildagi faryodlari”da [3; 5] farzand dog‘i, dilbandidan ayrilgan ota iztiroblari o‘choq-olovda qordek yonayotgan xayollarga (“*O‘chog‘imda o‘ng-tushlar//Qalovli qorday yonar*”) mengzalsa, musavvir elegiyasida [6; 24] boshini qor (o‘lim, keksalik, umr yakuni), ko‘zlarini zulmat qoplagan rassom ham “tuproqqa tirnog‘i bilan o‘lim farishtasin suratin chiza”di. “Jinni bola” [5; 265] she’rida ham *“otadan yetim, onadan yetim”, “ekkani ko‘chat, tergani o‘tin”, “ko‘ngli yarim, joni butun”, “mehrdan butun, aqldan yetim*” Xudoyqulning tirikligi-yu, o‘limini ham asosan qish manzarasida, “Akam

kelyapti” hikoyasida [7; 7] ham Xosiyat singil obrazini hastalikka chalinib, bu yorug‘ olamni tark etishidan avval qorli dala tasvirida ko‘ramiz... Boshqa she’rda [4; 78] esa nafs yo tuyg‘ular o‘limi ramzi bo‘lgan “qaytar vaqt” metaforasi qor motivi bilan bir kontekstda bo‘y ko‘rsatsa (“*Bu ko‘ngul ustina qorlar yog‘dilar, // Bog‘larin payhonlab o‘tdi bo‘ronlar...”),* yana bir she’rda [4; 85] inertlik, sustlik, tushkunlik holi “qahraton chillasi, yaldo sururi...”, “ko‘zim dashtlarini ko‘mdi kumush qor”, “ruhim chehrasida muzlar qaridi” tarzida ifodalanadi. Ko‘ngilning shu qadar uzun kechgan xaos davridan, mazmunsizlikdan faqatgina iymon ilmigina xalos qilishiga umid esa ilm-u adolat timsoli bo‘lgan qo‘shtig‘li “zulfiqor” obrazi bilan ifoda etadi:

“*Ruhim chehrasida muzlar qaridi,*

Kel endi, ko‘ksimni yorgil, zulfiqor.

Men og‘ir uyquda... Ko‘rpam kumush qor.

Sen meni uyg‘otgin, uyg‘ot, zulfiqor”.

Xulosa qilib aytganda, Eshqobil Shukur ijodidagi lirik obrazlar, ramzlar va istioralar lirik ifoda va individual uslubning retseptiv jarayonga xos muhim vositalari bo‘lishi bilan birga o‘zbek adabiyotidagi suv, havo, olov va tuproq metaforalari tizimining bir butun badiiy sistemasi sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шукур, Эшқобил. Навқирон давра. Юракни ўрганиш. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1984.

2. Шукур, Эшқобил. Сочлари сумбул-сумбул. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988.

3. Шукур, Эшқобил. Тунги гуллар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989.

4. Шукур, Эшқобил. Яшил қушлар. – Тошкент: Ёзувчи, 1995.

5. Шукур, Эшқобил. Ҳамал айвони. – Тошкент: Шарқ, 2002.

6. Шукур, Эшқобил. Кўз юмиб кўрганларим. – Тошкент: Академнашр, 2013.

7. Шукур, Эшқобил. Акам келяпти // Ёшлик, 2018. – №7.